



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

DEMOGRAFIK HOLATI

2024- yil yanvar-iyun

*2024-yil yanvar-iyun davri uchun
ma'lumotlar dastlabki, o'tgan davrlar
uchun ma'lumotlar yakuniy
hisoblanadi*



NAVOIY VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **1 084,9** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,6** ming kishiga yoki **1,8 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **533,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,2 %**), qishloq aholisi soni **551,0** ming kishi (**50,8 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1 084,9 ming kishi

Tabiiy o'sish

+10,1 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



49,2 %


Qishloq



50,8 %


Navoiy viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-iyun



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- iyul holatiga



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining **31,2 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **12,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- iyul holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, kishi

| | 2023- yil | 2024- yil | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|------------------|------------------|-------------------------|
| Navoiy viloyati | 1 065 269 | 1 084 983 | 101,9 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Navoiy sh. | 158 188 | 164 090 | 103,7 |
| Zarafshon sh. | 87 356 | 89 461 | 102,4 |
| G'ozg'on sh. | 9 188 | 9 285 | 101,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Karmana | 137 333 | 140 159 | 102,1 |
| Konimex | 37 508 | 37 322 | 99,5 |
| Qiziltepa | 160 391 | 163 132 | 101,7 |
| Navbahor | 119 933 | 121 741 | 101,5 |
| Nurota | 88 796 | 90 125 | 101,5 |
| Tomdi | 15 730 | 15 462 | 98,3 |
| Uchquduq | 39 372 | 39 532 | 100,4 |
| Xatirchi | 211 474 | 214 674 | 101,5 |

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Navoiy viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **9,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **9,6** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahrida **4 473,0** kishi hamda Navoiy shahrida **2 734,8** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tomdi tumanida **0,4** kishi, Uchquduq tumanida **0,8** kishi va Konimex tumanida **4,0** kishini tashkil etgan.

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

O‘g‘il bolalar **2 987** Qiz bolalar **2 884**



50,9 % **49,1 %**

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi

| | | |
|---------------|--------|------|
| Xatirchi | 22,9 % | 2441 |
| Navoiy sh. | 27,7 % | 2242 |
| Qiziltepa | 22,6 % | 1829 |
| Karmana | 22,8 % | 1580 |
| Navbahor | 21,9 % | 1322 |
| Nurota | 23,8 % | 1063 |
| Zarafshon sh. | 23,5 % | 1038 |
| Uchquduq | 18,2 % | 356 |
| Konimex | 18,1 % | 337 |
| Tomdi | 12,1 % | 93 |
| G‘ozg‘on sh. | 13,9 % | 64 |

Yanvar-iyun

O‘g‘il bolalar **6 360** Qiz bolalar **6 005**




51,4 % **48,6 %**

2024- yil yanvar-iyun oylarida **12 365** ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **23,0** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilda **24,3** promilleni tashkil etgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun, kishi

2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining **63,9 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,6 %** i – o'simtalardan, **5,0 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **7,6 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,8 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,7 %** i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **11,4%** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.



VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar **658**
Ayollar **522**



55,8 % **44,2 %**

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi

| | | |
|---------------|-----|-------|
| Xatirchi | 460 | 4,3 ‰ |
| Navoiy sh. | 410 | 5,1 ‰ |
| Qiziltepa | 295 | 3,7 ‰ |
| Karmana | 294 | 4,2 ‰ |
| Navbahor | 228 | 3,8 ‰ |
| Nurota | 203 | 4,5 ‰ |
| Zarafshon sh. | 129 | 2,9 ‰ |
| Konimex | 117 | 6,3 ‰ |
| Uchquduq | 64 | 3,3 ‰ |
| Tomdi | 28 | 3,6 ‰ |
| G'ozg'on sh. | 21 | 4,6 ‰ |

Yanvar-iyun


Erkaklar **1 286**
Ayollar **963**



57,2 % **42,8 %**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **2 249** ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,5** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **3,7** promille bo'lgan).

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Shahar
598

Qishloq
466



56,2 %

43,8 %

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, birlik

| | | |
|---------------|-----|-------|
| Navoiy sh. | 624 | 7,7 ‰ |
| Xatirchi | 471 | 4,4 ‰ |
| Qiziltepa | 378 | 4,7 ‰ |
| Karmana | 352 | 5,1 ‰ |
| Navbahor | 273 | 4,5 ‰ |
| Zarafshon sh. | 206 | 4,7 ‰ |
| Nurota | 181 | 4,1 ‰ |
| Uchquduq | 75 | 3,8 ‰ |
| Konimex | 74 | 4,0 ‰ |
| Tomdi | 18 | 2,3 ‰ |
| G'ozg'on sh. | 9 | 2,0 ‰ |

Yanvar-iyun

Shahar
1 502

Qishloq
1 159




56,4 %

43,6 %

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **2 661** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **5,3** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Shahar
175

Qishloq
135



56,5 %

43,5 %

Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, birlik

| | | |
|---------------|-----|-------|
| Navoiy sh. | 129 | 1,6 ‰ |
| Xatirchi | 115 | 1,1 ‰ |
| Karmana | 104 | 1,5 ‰ |
| Qiziltepa | 86 | 1,1 ‰ |
| Zarafshon sh. | 46 | 1,0 ‰ |
| Navbahor | 39 | 0,6 ‰ |
| Nurota | 28 | 0,6 ‰ |
| Uchquduq | 22 | 1,1 ‰ |
| Konimex | 15 | 0,8 ‰ |
| Tomdi | 3 | 0,4 ‰ |
| G'ozg'on sh. | 1 | 0,2 ‰ |

Yanvar-iyun

Shahar
342

Qishloq
246




58,2 %

41,8 %

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **588** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida **1,2** promille bo'lgan).


Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun



2024- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **47,3 %** i farzandsiz, **32,1 %** i bitta farzand bilan va **20,6 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar **1 457** Ayollar **1 451**



50,1 % **49,9 %**

Yanvar-iyun

Erkaklar **2 950** Ayollar **2 975**



49,8 % **50,2 %**


Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi

| | | |
|---------------|------|--------|
| Navoiy sh. | 2582 | 31,9 ‰ |
| Zarafshon sh. | 1010 | 22,8 ‰ |
| Karmana | 856 | 12,3 ‰ |
| Uchquduq | 379 | 19,3 ‰ |
| Qiziltepa | 328 | 4,1 ‰ |
| Xatirchi | 304 | 2,9 ‰ |
| Navbahor | 260 | 4,3 ‰ |
| Nurota | 106 | 2,4 ‰ |
| Tomdi | 73 | 9,5 ‰ |
| Konimex | 17 | 0,9 ‰ |
| G'ozg'on sh. | 10 | 2,2 ‰ |

2024-yilning yanvar-iyun oylarida **5 925** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **11,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **2,2** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **9,0** promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar **1 471** Ayollar **1 469**



50,0 % **50,0 %**

Yanvar-iyun

Erkaklar **3 103** Ayollar **3 223**



49,1 % **50,9 %**

Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi

| | | |
|---------------|-------|--------|
| Navoiy sh. | 1 567 | 19,4 % |
| Zarafshon sh. | 877 | 19,8 % |
| Xatirchi | 838 | 7,9 % |
| Karmana | 750 | 10,8 % |
| Qiziltepa | 513 | 6,4 % |
| Uchquduq | 431 | 22,0 % |
| Navbahor | 422 | 7,0 % |
| Nurota | 387 | 8,7 % |
| Konimex | 324 | 17,4 % |
| Tomdi | 201 | 26,1 % |
| G'ozg'on sh. | 16 | 3,5 % |

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **6 326** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **11,8** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,9 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **10,9** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1 000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1 000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 79 223-07-41